

## DEVELOPMENT AND SPIRITUALITY

**Bozorova Aydin Fakhriddin qizi**

Pedagogical Institute of Termez State University

**Annotation:** This article focuses on the concepts of spirituality and culture, as well as the factors that disrupt and affect the human mind.

**Keywords:** orientalism, development, technology, personal spirituality, religion, values.

### TARAQQIYOT VA MA'NAVIYAT

**Bozorova Oydin Faxriddin qizi**

Termiz Davlat Universitetining Pedagogika instituti

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ma'naviyat va madaniyat tushunchasiga to'xtalib o'tilib shu bilan birga inson ongini buzuvchi va unga ta'sir qiluvchi omillar haqida ham aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** sharqona qarash, taraqqiyot, texnika, shaxs ma'naviyati, mazxabchilik, qadriyat.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib o'sishi, ulg'ayib qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday haqiqatni unitmasligimiz kerak.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida shunday jumlar keltirgan. "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" [1].

Ha bu so'zni zamirida qanchalar ma'no yashirin. Ta'lim tarbiya bo'lmasa ma'naviyatni bilmaymiz, ma'naviyatni bilmasak taraqqiyot bo'lmaydi. Bular bir biri bilan uzviy bog'liq. Bir birining o'rnini to'ldiradi. Ta'lim –tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omil hamdir. Inson kuch qudrati tafakkuri va bilimida. U shunday kuchga egaki, unga ta'lim olib, o'qib – o'rganish orqali erishiladi. Dunyo taraqqiyoti ham yuksak ilm sohiblari yaratgan ma'naviy xazina orqali yuksalib keladi. Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanishi bosqichida har qanday soha tayanchini avvalo, bilim va tajriba tashkil etadi.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikamizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalari singari ta'lim sohasini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qayta qayd etilgan.

"Insonga xos orzu –intilishlarni ro'yobga chiqarishni, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki o'rinli bo'ladi. Qachonki shu ikki omil uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qush qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish, yuksalish va o'zgarish sodir bo'ladi".

Har qanday maqsadli va rejali faoliyat natijaga yunaltiriladi. Endi "taraqqiyot" degan so'zning o'ziga to'xtalib o'tsak.

Taraqqiyot deganda odamda, inson uchun qulayliklar darajasi tushuniladi. Bunga esa inson farovonligi, buning uchun texnika yuksalishi, davlatning iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishi anglashiladi. Bugungi kunda taraqqiyot robotlar yaratilishi darajasigacha ko'tarildi va yuksalish soniyama –soniya davom etmoqda. Ma'naviyat tushunchasi, bu so'zga ham to'xtalsak o'rinli bo'ladi. Ma'naviyatga ba'zi talqinlarga shaxsning ichki olami sifatida qaraladi. Unda shaxs psixologiyasi va shaxs ma'naviyati bir narsami? –degan savolni keltirib chiqaradi. O'qish –yozishni bilmaydigan yuksak ma'naviyatli kishilarni bilamiz. Misol qilib, Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asaridagi manqurtlik timsoli Sobitjon va Tansiqboyev o'qimishli kishilar. Askincha, Kazangap va Edigey qariyeb savodsiz kishilardir. Abduolob Quttiboyev va tarixchi Elizarov esa uta bilimdon, yuksak ma'naviyatli shaxslar sifatida ko'rsatiladi. Ko'rinadiki, berilgan

talqinlardagidek, “ma’naviyat odamlarda tayyor holda vujudga kelmaydi unga muttasil o’qish , o’rganish orqali erishiladi”. Ma’naviyatli odam yashashidan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o’tlazish yo’lini izlab topishi , muomala qilish madaniyatini egallash, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazardan yondashishi halol va xarom bularning farqini ajrata olishi zarur. “ Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot , yo najoy – yo halokot, yo saodat , yo falokat masalasidir” –deb ta’kidlagan A.Avloniy [2].

Ma’naviy –ma’rifiy tarbiya aniq natijalarni ko’zda tutgan holda ommaviy ma’naviy –ma’rifiy faoliyat asosida yo’lga qo’yiladi. Milliy ma’naviyatimizda islomiy qadriyatlar va tasavvuf axloqi markaziy o’rinni egallaydi. Bugungi kunda ma’naviyatimizni tutib turgan islomiy tushunchalar yoshlar ongida tadrijiy ravishda uzoq –yuluq singdirilayotganini va uning oqibatlarini inobatga olib, diniy tarbiya maslasiga o’z tarqqiyot yo’limizga mos mutaassiblik , aqidaparastlik va mazxabchilikka yo’l qo’ymaydigan milliy konsepsiyamizni yaratishimiz , uni hayotga tatbiq etishni yo’lga qo’yishimiz va bunda tasavvuf tamoyillariga ustuvor ahamiyat berishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” I.Karimov .2018
2. “Ma’rifat xazinası”
3. “Sog’lom avlod uchun” jurnali